

SHAXSNING YO‘NALGANLIGI VA JAMOAVIY PSIXOLOGIK MUHIT

Turdaliyeva Xolidaxon Oribjonovna

Namangan viloyati Mingbuloq tumani

23-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi davrda jamiyatda oilada va jamoalarda sog‘lom ruhiy muhitni yaratish muammosiga qaratilgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Hozirgi inovatsion o‘zgarishlar jamiyatimizda sog‘lom muhitni yaratishga qadar bo‘lgan, boshqalarga o‘z etiqodlari bilan ta’sir qila oladigan, tafakkuri teran, mantiqiy fikr yurita oladigan ikkinchi bir shaxs va jamoa yukini, uning mas’uliyatini tushuna oladigan shaxsga nisbatan ehtiyoj kattadir. Chunki, zikr etilgan fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar oilada, jamoada va jamiyatda sog‘lom ruhiy muhitni tashkil eta oladilar.

Kalit so‘zlari: Ishontirish, yo‘nalganlik, dialog, kinoya, taqlid, qiyofa, ta’sirlanuvchanlik, individuallik, psixologik muhit va boshqalar.

Mazkur maqola hozirgi zamon sivilizatsiyasining shaxs ma’naviy qiyofasiga ta’sirining psixologik mexanizmlarini o‘rganishga oid eng dolzarb muammolaridan biriga bag‘ishlangan. Darhaqiqat, jamiyatimizda bo‘layotgan katta o‘zgarishlar sog‘lom psixologik muhitni yaratishga qodir bo‘lgan, boshqalarga o‘z e’tiqodlari bilan ta’sir qila oladigan, mantiqiy fikr yuritishga ega bo‘lgan, kishilarni tushuna oladigan, psixologik bilim va imkoniyatga ega bo‘lgan barkamol shaxs sifatidagi rahbarlarga bo‘lgan ehtiyojni yanada orttiradi. Yuqorida zikr etilgan xususiyatlarga ega bo‘lgan shaxslar oilada, jamoada, jamiyatda shakllanadi. Yoshlik davridayoq bolani kishilar bilan muloqotda bo‘lishi, jamoada ahloqiy muhitni yarata bilish ko‘nikmalarni tarbiyalab borilishi lozim. Ma’lumki, bolalarga bu xususiyatlar dastlab ota-ona va murabbiylar tomonidan singdiriladi. Oldingi davrda L.N.Tolstoy bu hodisani “Maktabning ruhi” deb atagan. A.S.Makarenko jamoaning eng muhim sifatlari va uning o‘lchovi jamoaning “toni”, “yo‘nalishi” deb hisoblagan. Bularning doim, kundan kunga ehtiyotkorlik bilan tarbiyalab borish masalasini qo‘ygan. Jamoa yo‘nalishi juda sekinlik bilan tarkib topadi,

shuning uchun shaxs jamoa an'analaridan tashqarida deb qarash yaramaydi. Buning uchun jamoadagi yoshlar o'zidan oldingi avlod tajribalarini egallash va uni ko'paytirib borishlari muhim. Ko'pincha bolalar jamoasidagi muvafaqqiyatsizliklar mana shularga kam ahamiyat berganligida deb hisoblaydi A.S.Makarenko.

Hozirgi davrda psixologik muhim xaqidagi ilmiy izlanishlarning ko'pchiligi korxon va ilmiy muassasa jamoalari haqida bo'lib, harbiylar jamoasidagi psixologik muhit muammosi juda oz tadqiq qilingan va ishlanmagan sohadir. Harbiy pedagog kursantlar jamoasi va undagi psixologik muhitni vujudga keltiruvchi sabablarni yaxshi bilmog'i lozim. Psixologik muhit-obyektiv ravishda mavjud bo'lgan hodisadir. Shaxsning yo'nalganligi birinchi navbatda jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik muhit bilan hosil bo'ladi. Jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik muhit ayrim jamoalarning psixologik muhitiga tasir qilmasdan qolmaydi. Ikkinchi faktor-mikro ijtimoiy sharoit: bu mazkur jamoaning hayot kechirishining o'ziga xos funksiyasi, ya'ni jamiyatda mehnat taqsimotining geografik va muhit ta'siri, jamoaning keng ijtimoiy muhitdan ajralganligi (M: kosmos, muzliklar va hok.) jamoaning yosh va jismoniy tarkibi va hok. Bu ikkala ma'lumot jamoaning psixologik muhitini aniqlab beradi.

Psixologik muhit deganda jamoaning emotsional psixologik bazasini va asosini tashkil etadigan jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro ishchan va shaxsiy munosabatlarning emotsional darajasini tushunamiz, qaysiki bu munosabat ularni ahloq normalari va qiziqishlarining yo'nalishini belgilab beradi. Ilmiy adabiyotlarda bu hodisaning bir qancha tushunchalari ishlatiladi. "Ijtimoiy psixologik muhit", "axloqiy-psixologik muhit", "Shaxs ijtimoiy-psixologik yo'nalganligi", "psixologik nastroyi", "psixologik iqlim", "ijtimoiy-psixologik sharoit" va hok. Lekin ko'pchilik psixologlar "psixologik muhit" va "psixologik yo'nalganlik" tushunchalarini ishlatishni tavsiya qiladilar. Jamoaning psixologik muhiti guruhlarning yo'nalganligini qondirish, shaxslararo munosabatlar va guruhlardagi kelishmovchiliklarni hal etish uchun zarur bo'lgan muomala jarayonida hosil bo'lib namoyon bo'ladi. Bu jarayonda shaxslar o'rtasida yashirinib yotgan turli mazmundagi vaziyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu muzokaralar yoki yashirincha qarshiliklar, o'rtoqlarcha birdamlik yoki qo'pol ravishda yo'nalganlik

harakatda ko‘rinadi. Shaxslarning o‘zaro bir-biriga ta‘sir etuvchi holatlarining o‘zaro ta‘sir ko‘rsatishda ishontirish usuli orqali amalga oshirilishi mumkin.

Birinchiidan, ishontirish – bu malum bir hukm yoki xulosaning mantiqiy asoslanishidir. Ishontirish orqali suhbatdosh yoki butun auditoriyada aytilgan fikrni himoya qilish va shu asosda harakat qilish darajasi ongini o‘zgartirishga olib kelishi mumkin.

Ikkinchiidan, ishontirish bu – shaxs ratsional doirasiga ta‘sir qilish orqali shaxs yoki guruhning yo‘nalganligi tasir qilish mumkindir.

Uchinchiidan, ishontirish jarayoni ikki kishi yoki bir qancha kishi o‘rtasidagi ochiq yoki yopiq xolatdagi munozara bo‘lib, uning maqsadi hissiyot va tushunchalarni birligiga jamoaviy muhitni normal bo‘lishiga erishishdan iborat. Ishontirish albatta dialog tarzida bo‘lib, monolog formasida bo‘lishi mumkin emas. Faqat dialogdagina kishilar psixologiyasining haqiqiy o‘zgartirish imkoniyatlari yashiringan bo‘ladi.

To‘rtinchiidan, so‘z orqali ishontirish-tarbiyaning eng og‘ir usuli hisoblanadi. Bunda auditoriyaning ongini o‘zgartirishga ta‘sir qiladigan o‘ziga xos mantiq, gaplashish toni muhim ahamiyatga ega.

Rus psixologi A.G.Kovalyov ishontirishni oddiy axloqqa chaqiruvchi gaplardan farq qilishi zarur deb ko‘rsatadi. Ishontirishda vaziyat, faktlar bilan isbotlanadi, axloqqa chaqirishda “Uyat emasmi?”, “Shu ishing vijdonandami?”, “Har kimga shu kerakmi?” va x.k. so‘zlardan foydalaniladi. Ko‘pincha bo‘nday so‘zlarga suhbatdosh goxida ahamiyat bermaydi, yoki kinoyali ravishda qabul qiladi, chunki gap kimga qaratilgani malum bo‘ladi. Psixologik jihatdan tushunarlik, o‘zida hech qanday yangilik axborotini olmagan xabar boshqalar tomonidan qabul qilinmaydi. Suhbatdoshlar kinoyali munosabatda bo‘ladi yoki mutlaqo ishonmasdan, ko‘rolmaslik asosida munosabatda bo‘ladi, salbiy reaksiya hosil qiladi. Shu boisdan, tarbiyaning vazifasi jonga tegadigan maslahat go‘ylikka barham berishdir.

Ishontirish ishontirmoqchi bo‘lgan odam uchun mazmunli axborotdan iborat bo‘lib, kishida unga nisbatan ongli munosabatni vujudga keltirishni maqsad qilmog‘i lozim. Shuningdek, taqlid, psixik ta‘sirni bir ko‘rinishi bo‘lib, individ tomonidan tashqi axloqiy hislatlar, hatti-harakat, qiliqlar, turli yo‘nalganlikni va yurish-turishlarni namoyon

qilishdir. Bu taqlidning bir ko‘rinishi xolos. Mashxur psixoterapevt V.L.Levi taqlidni ichki va tashqi turlarga ajratadi. Ichki taqlidda boshqa kishini hissiyot va xulq atvori intuitiv tarzda aylanadi. Boshqa kishining tashqi namoyon bo‘lishi taqlid qilishga albatta xisobga olinadi va tabiiydek ko‘rinadi. Taklid murakkab psixik xususiyatlar sifatida butunligicha qabul qilinadi. Istalgan odam bilan muomalada bo‘lar ekanmiz biz uning ovozi, qiliqlari, xarakatlarinigina qabul qilmasdan juda ko‘p boshqa xususiyatlarini ham tushunish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. (kechinmalar, xulq-atvor, orzular, va x.k) Misol sifatida V.L.Levi bir xatni keltirgan. “Ko‘chada ketaturib ikkita yigitning mening qiyofam haqidagi fikrlarini eshitib qoldim, keyin butunlay ko‘chaga chiqmasdan uyda bekinib oldim, men uchun xayotning umuman qizig‘i yo‘q edi. Lekin xayotimda muhim bir voqea sodir bo‘ldi. Men juda tashqi tomondan xunuk, lekin ichki go‘zalligi bilan insonni maftunqiluvchi bir ayol bilan tanishib qoldim. U menga: “Menga nisbatan sen nihoyatda go‘zalsan” dedi. Shundan so‘ng, men bir narsaga tushundim: “Sen o‘zingga qanday qarasang, boshqalar ham shunday hisoblaydilar. Bu so‘zlar menga dalda berdi va men bu ayol kabi harakat qildim, natijada atrofdagilar menga boshqacha munosabatda bo‘lganligini sezdim. Aynan har-bir inson o‘z-o‘zini tarbiyalashda boshqa kishilar bilan munosabatda bo‘lganda ongsizlikka nisbatan onnga tayanib munosabatda bo‘lishi kerak. Shuningdek, ichki taqlid qilishda juda katta taktikaga ega bo‘lgan Irakliy

Andronnikovni misol qilib keltirish mumkin. U o‘zi xaqida juda uyatchanlik, tortinchoqlik, natijasida ba’zi so‘zlarni tutilib-tutilib aytganini yozadi va keyin ichki taqlid qilish yo‘li bilan bu kamchiliklar yo‘qolganini aytgan. “Men katta yig‘ilishlarda raislik qilishda Marshakka ichdan taqlid qilardim va hech qanday kamchilikka yo‘l qo‘ymasdim”. Ayniqsa, psixologlar ichki taqlidning mohiyatiga tushunsa bu ularning ishida va o‘z ustida ishlashga yordam beradi. Shu boisdan, ta’sir qilish bir kishining ikkinchi kishiga yoki guruxga psixologik ta’siri bo‘lib ularning fikr va irodalariga tanqidsiz so‘zga asoslanadi va jamoaviy muhitga ta’sir etib shaxslarning yo‘nalganliklarini o‘zgartiradi. Yana bir rus psixologi B.F.Porshnevning ta’kidlashicha, ta’sir qilishni mohiyati, tinglovchining so‘zlovchiga nisbatan to‘la ishonch hosil qilishidir. Agar kishiga ishonch bo‘lsa, so‘zlovchi o‘z fikrini to‘la o‘tkazadi, so‘zlovchidagi obrazlar tasavvurlar tinglovchiga ko‘chadi. Demak ta’sir qilish axborot

o‘zatuvcchi manbani obro‘sigga bir tomondan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan o‘zaro ishonch bo‘lishiga anig‘i ular o‘rtasida hech qanday qarama-qarshilik bo‘lmasligiga bog‘liq. Ta’sir qiluvchi kishining bergan ko‘rsatmasiga qanchalik ahamiyatga egaligini quyidagi eksprement orqali aniqlangan. A.A.Bodolyov pedagogika instituta talablariga XVIII asrda chizilgan “Qariya” potreti ko‘rsatilib bir guruhda uni yirik lashkarboshi, ikkinchisida “mafioz” deb ko‘rsatma beriladi va uni tasvirlash uchun 5-7 minut vaqt berilgan. Natijada 86 kishidan 54% ta’sirlanish asosida tasvirlangan, qolganlari esa uncha ta’sirlanmagan. Bu ta’sir o‘qituvchi tomonidan bo‘lganligi uchun ko‘pchilik uncha ishonmagan.

Ta’sirlanuvchanlik - inson psixikasiga xos xususiyatdir. Ayniqsa bu holat bolalarda kuchli xisoblanadi. Ta’sir ko‘rsatish muomalada ko‘proq bo‘lib, ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz, to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bevosita bo‘ladi. Agar pedagogik faoliyatda bu psixolgik usuldan foydalanilsa katta tarbiyaviy vosita bo‘lishi mumkin Umuman insoniy munosabatlarda o‘zaro ta’sir ko‘rsatishning, ishontirish, ta’sir qilish, taqlid o‘zaro bog‘lanib ketgan, lekin ishontirish alohida yetakchi usul xisoblanadi. O‘zaro munosabat holatida jamoadagi odamlar ayniqsa raxbarning kayfiyati katta ta’sir ko‘rsatadi. Misol tariqasida jamoadagi kelishmovchilikka sabab bo‘lgan holatni olaylik: O‘qituvchi darsdagi shovqin, intizomsizlikni oldini olish uchun “qora daftar” tutgan ozgina noto‘g‘ri xarakat bo‘lsa yozgan va ikki qo‘yilgan. Bu sinf jamoasida norozilik tug‘dirgan. Bu kelishmovchilikka olib keluvchi ataylab qilingan harakat bo‘lib, uning kayfiyati o‘z navbatida o‘quvchilarga ta’sir qilib, jamoada portlash vaziyatini vujudga keltirgan. Tadqiqotchi psixolog o‘qituvchining tashqi xolatini tasvirlab, so‘z, iboralar, xaqida hech narsa demagan. Bu voqeada o‘zaro munosabatlarning nosog‘lom iqlimi o‘qituvchining o‘rtasidagi doimiy kelishmovchilikni keltirib chiqarganligini aytib o‘tadi. Darxaqiqat, inson tomonidan boshqa insonga ta’sir ko‘rsatish asosida o‘zaro bog‘liqlik yotadi. Oldindan ma’lumki inson boshqalar bilan munosabatga kirishar ekan yolg‘izlik natijadagidan boshqacha holatni kechiradi, hatto barcha psixik jarayonlari ham o‘ziga xos holda kechadi.

XX asr boshlarida AQSH, Germaniya, Rasiyada F.Olport, V.Meyode, V.M.Bexterevlar tomonidan o‘tkazilgan eksperementlar ma’lum bir faoliyatda boshqalarning ishtiroki shu faoliyatni yoki individumning xulqini o‘zgarishi mumkinligi

aniqlangan. Hatto ikki kishini o‘zaro bir-biriga tasir harakati ham faoliyatning yo‘nalishini o‘zgartirdi. Psixolog V.B.Olshanskiy o‘zaro tasir ko‘rsatishning bir necha tiplarini ko‘rsatib bergan.

Birinchi tipi o‘zaro qiyinlik: Faoliyatda har qaysi sherik (harakatlarini) hatolarini ko‘payishiga sabab qiyinchilikni vujudga keltiradi.

Ikkinchi tipi o‘zaro yengillik: Bunda sheriklarning har biri faoliyat muvaffaqiyatini taminlaydigan o‘zaro ishonch.

Uchinchi tipi bir tomonlama yengillik. Sheriklardan birining ishtiroki ikkinchisining faoliyati yengillashtiradi. (katta odam va bola)

To‘rtinchi tipi har tomonlama qiyinlik. Sheriklardan birining ishtiroki faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi (bunda bolaga va katta odamga tegishli).

Beshinchi tip mustaqillik. Sheriklarning birgaligi faoliyatga hech qanday ta‘sir ko‘rsatmaydi, bu holat hayotda kamdan-kam uchraydi. Faoliyat jarayonida o‘zaro ta‘sir ko‘rsatishning turli tiplari mavjudligi psixologik moslik hodisasi mavjudligini anglashga yordam beradi. Bu jamoada psixologik muhitga ta‘sir ko‘rsatuvchi eng muhim ichki faktor hisoblanadi. Shu bois, psixologik moslik kishilarning o‘zaro shunday kelishuviki, faoliyatida o‘zaro birga harakat qiluvchi kishilardan minimal psixologik energiyani sarf qilib maksimal natijaga erishishni taminlaydi. Agar guruh faoliyatda yuksak natijaga erishishi uchun katta psixik energiya sarflasa, bu jamoa a‘zolari o‘rtasida psixologik moslik va psixologik muhitning yaxshi bo‘lishiga shubha tug‘diradi.

Psixologik mos bo‘lmaslik-do‘stona munosabat, bir-birini ko‘rolmaslik maqsad birligini yo‘qligiga emas, balki bu muammoli vaziyatda o‘zaro kelishmaslik, aqliy va harakatlarda birlikning yo‘qligi, diqqat, tafakkur va boshqa xususiyatlarning mos kelmasligi sabab bo‘lib, birgalikdagi faoliyatga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Odamlarning o‘zaro mosligi absolyut narsa emas. Bu qandaydir konkert faoliyat yoki o‘zaro munosabatlarda ko‘rinadi. O‘zaro moslikning yuksak va past darajalari mavjud. Moslikning yuksak darajasi uning qo‘yi darajalariga ta‘sir qilib jamoaning psixologik muhitiga ijobiy ta‘sir etishi mumkin. M: jamoa a‘zolaridagi maqsad birligi shaxslar o‘rtasidagi qarama-qarshilik konfliktlarning kelib chiqishiga yo‘l qo‘ymasligi mumkin. M: turli ekspeditsiyalar, norasmiy va rasmiy uchrashuvlar

Psixologik moslikni ta'minlovchi faktorlar quyidagicha aniqlangan.

- Mafkuraviy qarashlarning umumiyligi, yuksak motivatsiya ega bo'lishi;
- Har bir odamning optimal psixofiziologik sifatlarining mavjudligi;
- Individual psixologik xususiyatlarning har xilligi (lider ajratish imkoniyati);
- O'z-o'ziga yuksak darajadagi tanqidiylik va boshqalarga nisbatan chidamlilik.(ziyolilik) toqatlilik va chidamlilik v.b.;
- Hayotiy o'zaro tobelikka asoslangan bir-biriga nisbatan to'la ishonch.
- Maqsadga yo'naltirilgan faoliyatda mumkin qadar band bo'lish.
- Har bir odamning iloji boricha yolg'iz qolish darajasini aniq bo'lishi.
- Shuningdek, oldiga quyilgan vazifani aniqlash.

Bu xulosalar juda keskin vaziyatdagi odamlarni o'rganish natijasida keltirib chiqarilgan. Holbuki, bu xulosalar istagan jamoada uning faoliyatini tashkil etishda hisobga olinishi lozim deb xisoblaymiz. Shunga asoslangan xolda, psixologlar bolalar jamoasidagi hayotni tashkil etishda psixologik moslik faktorlarini hisobga olishlari lozim. A.S.Makarenko pedagoglarni bolalardagi psixologik moslikni hisobga olib bilishlariga yuksak baho bergan. Yana bir rus pedagoglaridan V.A.Suxomlinskiy turli tadbirlar darsdan keyin, bolalar uylarida bo'lib dam olgach o'tkazilishi yaxshi maqsadga muvofiqligini ta'kidlagan. Har qanday jamoadagi kelishmovchiliklarni oldini olish eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Kelishmovchiliklarni shartli ravishda "foydali" va "zararli" turlarga bo'lish mumkin. "Foydali kelishmovchilik" tufayli jamoadagi nosog'lom munosabatlarni ochish va bartaraf qilish yo'llariga olib boradi. Afsuski xayotda "zararli" kelishmovchiliklar ham ko'proq uchrab turadi, bu bilan hech qanday tarbiyaviy masalalarni hal qilish mumkin emas, balki jamoa muhitiga katta zarar yetkaziladi, odamlarning kayfiyatini yomonlashtiradi. Bu holat odamlarning bo'lar-bo'lmasga jig'iga tegish, odobsizlik bilan tanbeh berish, insoniy fazilatlarini mensimaslik kabilar natijasida paydo bo'ladi. Sotsiologlar ish vaqtining 15% kelishmovchiliklar va undan keyingi holatlar bilan yo'qotiladi deb aytishadi.

V.B.Olshanskiy mehnat jamoalarida paydo bo'ladigan kelishmovchi vaziyatlarning kelib chiqish sabablarini uchta guruhga ajratadi.

Birinchisi, ishlab chiqarishni va ish joylarida tashkil etishdagi kamchiliklar.

Ikkinchisi, boshqarishdagi kamchiliklar, odamlarni joy-joyiga quyabilmaslik(ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olabilmaslik, rahbarlarning noto‘ritanlanishi kabidir).

Uchinchidan, jamoa ichidagi shaxslaro munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lgan kamchiliklar (ilg‘orlar va qoloqlar, eski va yangi ishchilar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar)

Shunday qilib, jamoaning psixologik muhitiga rahbarning shaxsiga, uning shu ishga mos kelishiga, jamoa a‘zolarining o‘zaro kelisha olishiga jamoa faoliyatini amalga oshirishda o‘zaro moskelishiga bog‘liqdir. Bu xususiyatlar istalgan jamoaga xos bo‘lib albatta bolalar jamoasining o‘ziga xostomonlari mavjud. Bolalar jamoasining nazariy asoslari A.S.Makarenko tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u “psixologik muhit” terminini ishlatmasa ham, lekin jamoa toni, stil’ terminlarini ishlatgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, xar bir jamoada qo‘yidagi belgilarni mavjud bo‘lishi zarurligini ko‘rsatishimiz mumkin.

Birinchidan, Jamoaviy ichki tinchlik doimiy bardamlik, ishga tayyor turish, jamoa a‘zolarining jamoa a‘zolari bilan faxrlanishi.

Ikkinchidan, Jamoa a‘zolarining birdamligi, do‘stona munosabatlar, ichki munosabatlarda tarbiyalanuvchilarni boshqa kishilar oldida himoyalash, uni kamsitmaslik, unga hech qanday jabr qelmaslik.

Uchinchidan, Barcha jamoa a‘zolarini himoyalanganligi. Birorta tarbiyalanuvchi u qancha kichik bo‘lmasin, o‘zining boshqalardan ajratib quyilganligini sezmasligi.

To‘rtinchidan, Jamoaning barcha a‘zolarining foydali va oqilona faolligi.

Beshinchidan, Har bir kishining xatti-harakatlarida va so‘zlarida o‘zini tuta bilish ko‘nikmasining bo‘lishi.

Darhaqiqat, jamoa tayanchiga aylangan kishining ichki holatini yoki o‘zaro munosabatining, jamoa a‘zolarining tashqi qiyofasiga ham katta tasir etishi, bu ham jamoa muhitining qandayligini belgisi deb hisoblanishining psixologik mezoni xisoblanadi. Demak, shaxsni yo‘llanganligi uning xulqining maqsad va motivlarida namoyon bo‘ladigan psixologik xususiyatlardan hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. G‘oziyev E.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent. 2002. 1-2 kitob.
2. G‘oziyev E.G., Toshmatov R. Menejment psixologiya. – Toshkent. 2001.
3. G‘oziyev E.G. Muomala psixologiya. – Toshkent. 2001.
4. Nemov R.S. “Psixologiya”. Kn.1. – M., 2003.
5. “Psixologiya” Uch. T-2. “Prospekt” – Moskva-2004.
6. Psixologiya i pedagogika. Pod reaksiyey A.A.Radugina. Izd. “Sentr” 2003.
7. Gamilton Ya.S. “Chto takoye psixologiya”. – “Piter”, 2002.
8. Burlachuk F. Psixodiagnostika. – “Piter”, 2002.
9. Ayzenk M. Psixologiya dlya nachinayushix. – “Piter”, 2000.
10. Bolotova A.K., Makarova I.V. Prikladnaya Psixologiya: Uchebnik dlya vuzov, – M.:IKTS “Mart”, 2004.